



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi VIII an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

**Toshkent
2024-yil, 26-aprel**

UO‘K:378.147(575.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Matн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari o‘rin olgan. To‘plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o‘zbek (davlat tili) tilini o‘qitish, adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g‘oyalar kabi mavzular o‘z aksni topgan.

To‘plam ona tili, o‘zbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Maylonova
Ped fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O‘zbek adabiyoti ta’limi” kafedrasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga
mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

UO‘K:378.147(575.1)

ning natijalarini taxmin qiladi, matnni mantiqan davom ettira oladi;

onlayn media, reklama hamda sinf darajasiga mos badiiy va informativ matnda muallif nazarda tutgan maqsad, matn mohiyatini aniqlaydi, javoblarini matnga tayangan holda asoslab bera oladi [Azimova, 2021:6-7].

“Ona tili o‘qitish metodikasi darsligida o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quydagilardan iborat ekaligi ko‘rsatilga:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qishlarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.

3. O‘quvchilaming atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyo-qarashlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o‘stirish.

6. O‘quvchilaming xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish” [Qosimova,2009:69-70].

O‘qish darslaridan kuzatiladigan muhim strategik maqsadlar ta’lim bosqichida umumiylar tarzda nazarda tutilsa, bevosita xususiy taktik maqsadlarga amal qilinadi. Bu borada uy vazifalari o‘quvchilarning o‘qish fani yuzasidan o‘tilayotgan yoki o‘tilgan darslar mobaynida olgan bilimlari, hosil qilina boshlagan ko‘nikma va malakalarini yanada mustahkamlash (bilimni ko‘nikmaga, ko‘nikmani malakaga yaqinlashtirish), talab darajasiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Uy vazifalarini bajarish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, boshqalarning nazorati va ko‘magisiz shug‘ullanish, tadqiq etish hamda qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini baholash kabi hislatlarni qo‘lga kiritishi yuz beradi. Ular o‘quv materiali ustida muayyan tartibda qat’iyat bilan ish olib borish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar, mustaqil ishlash, o‘quv-biluv faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni engib o‘tish yo‘llarini izlay boshlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳусанбоева Қ. Тахлил – адабиётни англаш йўли. Тошкент, 2014.
2. I. Azimova [va boshq.] Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
3. K. Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik). – T.: NOSHIR, 2009.
4. Ҳусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўқув қўйлланма. Тошкент, 2017.

MAKTAB TA’LIMIDA BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘QITISHDA PSIXOLOGIK METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mahliyo Elboyeva,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
elboyevamahliyo@navoiy-uni.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan. Psixodiagnostik metodlar orqali bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitish ijtimoiy ong formasi sifatida bolani bilim olishdagi harakati, xotira va aqliy jihatdan salohiyati, hamda o‘quvchilarning badiiy asarga munosabati va qarashlarini, asar voqealarini baholashdagi o‘ziga xosliklarni, estetik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Maqolada bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda psixodiagnostik metodlardan amaldagi darsliklarning 5-sinf Adabiyot darsliklarida berilgan asarlar misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: psixodiagnostik metodlar, nutqiy fantaziya, psixologik fikrlash, diagnostika, ekspri-

mental tadqiqot

Annotation: This article talks about the possibilities of using psychological methods in teaching samples of children's literature. Teaching samples of children's literature through psychodiagnostic methods as a form of social consciousness serves to express the behavior of the child in learning, memory and intellectual potential, as well as the attitude and views of students to the artistic work, the peculiarities in evaluating the events of the work, aesthetic relations. In the article, psychodiagnostic methods of teaching children's literature samples are analyzed on the example of the works given in the 5th grade literature textbooks.

Key words: psychodiagnostic methods, speech fantasy, psychological thinking, diagnosis, experimental research

"Adabiyot yashasa, millat yashar" degan edi Cho'lpon. Adabiyot yashamog'i uchun adabiyotni sevguvchi avlod kerak. Bolalikda uyg'otilgan muhabbat mangu bo'ladi. Shu ma'noda katta adabiyot uchun bolalar adabiyoti o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Shu ma'noda pedagoglarimiz, adabiyot vositasida bolalarga ta'lim va tarbiya berishga harakat qilishadi. Darhaqiqat, ta'limda bolaning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, og'zaki va yozma holda erkin fikrlay olishi, o'zgalar bilan muloqot davomida o'zgalar fikrini anglay olishi, jamiyat a'zolari bilan shaxs sifatida shakllanib, erkin muloqotda bo'lish ko'nikma va malakasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Taniqli metodist olim A.Zunnunovning fikricha, adabiyot o'qitish usulining muhim vazifasi o'quvchilarning anglash faoliyatini boshqarishning samarali yo'llarini aniqlashdan iboratdir. [Зуннунов, 1992:12]

Fikrimizcha, adabiyotda xususan, bolalar adabiyotini o'qitishda ham zamonaviy va yangi usul metodlaridan foydalanish bugungi kun talabi bo'lmoqda. Biz pedagoglar bolada mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, qobiliyatlarini ko'rsatish kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini mustaqil tanlay olishi uchun biz bolani o'qitishda yangicha usullar bilan yondashishga harakat qilamiz. Bolaning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, tafakkur tarixini hisobga olgan holda psixodiagnostik metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklar ularning qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli xil psixik holatlarning psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda psixodiagnostik tadqiqot doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalardan qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi. Psixodiagnostik metodlar orqali bolalar adabiyoti ijtimoiy ong formasi sifatida bolalarning borliqqa qarashlarini, asar voqealarini baholashdagi o'ziga xosliklarni, estetik munosabatlarni ifodalaydi.

Nazarimizza, bugungi kun ta'lim tizimimiz, o'quv-tarbiya jarayonlarimiz bolalarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ularni to'g'ri shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik jarayoning mahsuldarligi pedagogning o'z o'quvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq. Demak, shu o'rinda psixodiagnostik metodlardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkillatsirsak, bolaning darsga diqqatini jalb qilish bilan bir qatorda uning adabiyotga bo'lgan munosabatini, ruhiy holatini ham tahlil qila olamiz. O'qituvchi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nega va qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarning psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda psixodiagnostik tadqiqot doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalardan qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, psixodiagnostika terminiga to'xtalib o'tsak, psixologik diagnostika atamasi XIX asr oxirida eksperimental asosda vujudga kelgan. Bu tushuncha individni o'rganadigan barcha metodlar majmuini o'z ichiga oladi. Psixologik diagnostika inson xulq-atvorini xarakterlaydi uning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishlarini diagnoz qiladi. [Nishonava, 2006:16]

Psixologlarimizning ta'kidlashicha, bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tafsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi. Kichik va o'rta yoshdagи bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh psixologiyasi va pedagogik psixologianing sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli

hayotiy sharoitlarda (faoliyatda, muloqotda va boshqalarda) shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar sxemasi tuzishda foydalanilishi mumkin. O‘qituvchi o‘z ishida doimo bolalar psixofiziologik masalalari bilan to‘qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalargina emas (masalan, chorakning oxiriga kelib o‘quvchilarning o‘zlashtirishi kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollarini aytib beradigan natijalar qiziqtiradi [Nishonova, 2011:16].

Tadqiqotimizda, psixodiagnostikani bolalar adabiyotida qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklari tadqiq qilindi. Bunda bolaning yosh xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi kichik bolalar davrini olsak, (7 yoshdan 11-12 yoshgacha) bu davrda bola dunyonи ozmuncha anglagan atrof-muhitga munosabat bildiradigan bo‘ladi.

M.To‘ychiyeva ta’kidlashicha bir qarshda bu yoshdagи o‘quvchilarda energiyaning oson uyg‘oni-shi, faollikni oshishi, g‘ayratini ichiga sig‘dira olmaslik kabi o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. U darsda zerikishi, uy vazifasini bajarishga rag‘bati bo‘lmasligi mumkin, lekin qiziqish doirasi juda keng bo‘ladi. [To‘ychiyeva, 2023: 8] Bu yoshda bolalar olima ta’kidlab o‘tganidek, har qanday narsaga qiziquvchan bo‘ladi. Shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular badiiy asarni mustaqil o‘qishga harakat qiladilar. Chunki bu ularga ishonch va zavq bag‘ishlaydi. Olima Q.Husanboyevaning to‘xtalib o‘tishicha, badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilar tomonidan ilg‘angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o‘quvchi o‘zi uchun o‘zi kashf qilishi kerak. O‘quvchiga asar qahramonlariga xos ma‘naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko‘magida kashf etish imkonini yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o‘quvchilarga ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. [Husanboyeva, 2020:37]

Demakki, o‘quvchilarga adabiyotning ilk ostonalari dayoq ularga adabiyotdan lazzatlanish tuyg‘usi ni shakllantirishga harakat qilmog‘imiz darkor ekan. Shu sababli ham bu yoshda bolaga psixologik jihatdan ya’nikim uning ruhiyatiga mos ravishda metod va texnologiyalarni qo‘llab adabiyot olamiga olib kiramiz. Psixodianostik metodlardan 5-sinf o‘quvchilariga qo‘llab ko‘rsak. Sinfda mustaqil o‘qish uchun berilgan asarlardan foydalanamiz sababiki, mustaqil o‘qish jarayoni quyidagi maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi:

- bolada kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash;
- ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish;
- ularning qiziqishini o‘rganish;
- adiblarning ijodi bilan elementarni tanishtirish;
- o‘qish malakalarini shakllantirish;

Mustaqil o‘qish uchun berilgan asarlar birinchidan, bolaning yosh xususiyatlarini, qiziqish doilarini ikkinchidan, o‘qishga tavsiya qilingan asarlarning dastur mavzusiga mosligi va badiiy barkamolligini alohida inobatga olinishini taqozo etadi. Zero sinfda o‘qish – hayotga tayyorlash, mustaqil o‘qish esa hayotning o‘zidir. Beshinchi sinf adabiyot darsligida Anva Obidjonning hayoti va ijodi berilgan. Mustaqil o‘qish uchun esa “Avtoqishloq”, “Bahromning hikoyasi”, “Odam bo‘laman” she’rlari berilgan. Ushbu she’rlardan birini tanlab bolaga uyda mustaqil o‘qib, o‘rganib kelishni topshirishdan oldin bolaning xotirasida she’rning necha foizi qolishi, qanchasini o‘zlashtira olishini, bolalarning eslab qolish qobiliyatini va she’rni qancha qismini yodlay olishini bilishimiz uchun eksperimental metodikadan ya’ni tabiiy eksperimental metoddan foydalanamiz. Shu o‘rinda tabiiy eksperimental psixologiya va metodika terminiga to‘xtalib o‘tsamiz.

Eksperimental metod – bunda tadqiqotchi o‘z xoxishi bilan qandaydir ruhiy protsess yoki xususiyatni yuzaga keltirib ruhiy hodisaning tashqi sharoitga bog‘liqligini tekshirib ko‘rishi mumkin. Bu metodning afzalligi Empirik-ya’ni tajriba yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan faktlardir. Bu metod asosan pedagogikada bola ruhiyatini o‘rganish uchun qo‘llanadi. Professor A.F.Lazurskiy tomonidan eksperimental metodning alohida turi-tabiiy eksperimental metod 1910-yilda ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o‘rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa ta’lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanilmoqda. Bu metod yordamida oddiy kuzatish va o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan aniqlash qiyin bo‘lgan yoki butunlay mumkin bo‘lмаган ma‘lumotlar aniqlanadi, bolalarda idrok, xotira, sohasidagi ba’zi bir qonuniyatlar ochilgan. [Nishonova, 2011:36]

Psixologlarning aytishicha, eksperimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida ayniqsa talim va o'quv tarbiya ishlarida juda ko'p foydalaniladi degan fikrni ta'kidlab o'tganlar. Kuzatishlarimga ko'ra bolaning qobilyatlarini o'rganmay turib unga biron topshiriq yoki vazifa berish bu bolani fandan va darsdan zerikishiga va borib-borib umumuman dars qilmaslikka, shu fanga umumyan qiziqmay qo'yishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli avvalo bolani yaxshi o'rganmoq unga badiiy asarni u qabul qila oladigan va uni qiziqtira oladigan darajada tushuntirish usullari va yo'llarini biz pedagoglar izlamog'imiz kerak.

Demak, biz yuqorida keltirib o'tgan eksperimental metodimizni 5-sinf adabiyot darsligida Anvar Obidjonning mustaqil o'qish uchun berilgan yuqorida nomi aytib o'tilgan she'rlaridan "Odam bo'laman" she'rini tanladik [Ahmedov, 2020:99]

Shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, bolalarga biron topshiriqni berishdan avval, bolalarga ularga berilgan vazifani to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilish kerak chunki, berilgan va bajarilayotgan vazifaning muvaffaqiyati ko'p hollarda shunga bog'liq.

Bolalarga "Odam bo'laman" she'rini yaxshilab ikki-uch marta ifodali o'qib beramiz:

Odam bo'laman

Kezaman ko'p joylarni

Moy tomchigan kiyimda.

Ba'zan kitob titkilab,

Dam olaman uyimda,

Men shofyor bo'laman, dada.

Mayli...

She'rni oxirigacha ifodali o'qib beramiz va o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beramiz: "Hozir men sizlarga ushbu o'qib bergen she'rimdan o'nta so'z aytaman va bir to'xtab olaman, mana shu to'xtab olgan vaqtimda aytgan so'zlarimni eslab qolib uni qog'ozga yozishingiz va rasmini chizishingiz kerak bo'ladi. Tezroq yozishga va chizishga harakat qiling.

So'zlar: shafyor, fazogir, oy, to'p, futbolchi, do'xtir, barmoq, bolalar, kitob, moy. Bolalarga yuqorida-gi so'zlar birin-ketin o'qib beriladi, har bir so'zni o'qib bo'lganidan keyin 20 sekund tanaffus qilinadi. Shu vaqt ichida bola aytilan so'zlarini yozishi va chizib borishi kerak. Mashg'ulot tugagandan so'ng, bolalardan yozgan so'zlarini o'qib berishini so'raladi.

Natijalar tahlili:

1 ball – o'z chizmalari va yozuvlaridan foydalanib so'zlarni to'g'ri aytса;

0.5 ball – chizgilarga qarab berilgan so'zlarga yaqinroq so'z aytса;

0 ball – noto'g'ri so'z aytса.

Umumiy maksimal ko'rsatkich o'n ball. Demak, baholaydigan bo'lsak bola maksimal ball to'plasa xotirasi juda yuqori u bola she'rni bemalol yodlay oladi. Sakkiz-to'qqiz ball to'plasa bu bolada eshitish xotirasi yuqori darajada u she'rni ko'proq tinglasa yodlay oladi. To'rt-yetti ball to'plasa xotirasi o'rtacha darajada rivojlangan bunday bolalarga she'rni yarmini yodlashga qobilyat mavjud . Ikki-uch ball to'plasa bunday tipdag'i bolalarda xotira past hisoblanib ular bilan darsda, darsdan tashqari mustaqil ishlarda ko'proq xotira mashqlarini va aqlni charxlovchi turli xil metodlar orqali mashq qilishlari kerak bo'ladi. Bunday jarayonlarda psixodiagnostik testlar ham asqotadi. Bu testlar yordamida bolaning aqlini o'l-chash uning qobilyat darajasiga qarab o'qituvchi u bilan ishlashi, izlanishi kerak bo'ladi.

Psixodiagnostikaning yana bir muhim xususiyati shundaki, unda bolani ruhiy jihatdan o'rganib, uni amaliyotda to'g'ri yo'naltirishizdir, bolani adabiyot olamiga olib kirishimizda yordamchi usul deb o'yladik. Psixodiagnostik metodlardan yana biri "Hikoyani qayta esga tushirish" metodikasi bu metod orqali bolaning o'qigan hikoyasini qay darajada eslab qolishi va uni tushunish darajasi ham o'rganiladi. Bunda faqatgina hikoyani tushunish va eslab qolish qobiliyatigina emas, balki og'zaki va yozma nutq qobiliyatlari ham aniqlanadi. 11-12 yoshdagi bolalar uchun hikoyalar tanlanganda uning hajmi qisqa-roq, mazmuni tushunarli bo'lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, hikoyani idrok qilish, yaxshi tahlil qilish uni ifodali o'qib berish usuliga bog'liq. O'qituvchi hikoyani o'qib berishi bolalarga hikoya mazmunini tushunishni osonlashtiradi, "eshitganini" idrok qilishi uchun ko'proq kuch, diqqatning barqarorligi talab etiladi . Bolalar mustaqil o'qiganida unda matnni bir necha marta qarab chiqish imkoniyati

tug‘iladi, shu bilan bir vaqtida yomon o‘qilganda matnning mazmunini tushunishda qiyinchilik vujudga keladi. Hikoyani yozma ravishda esga tushirishda yanada ko‘proq qiyinchiliklar vujudga keladi. Shuning uchun ham metodistlarimiz bolaga hikoyani yoki boshqa biron asarni o‘qituvchining o‘zi ifodalı tarzda o‘qib berishi bolada badiiy asarni tushunish va tahlil qilish malakasi yaxshi shakllanishiga yordam beradi degan fikrni ta’kidlab o‘tganlar.

Biz tadqiqotimiz davomida yuqorida “Hikoyani esga tushirish” metodini 5-sinf adabiyot darsligida berilgan (amaldagi) “Balalikning beg‘ubor olami” turkumidan Oybekning “Fonarchi ota” hikoyasini tadqiqotimiz uchun olamiz. [Ahmedov, 2020:99]

5-sinf o‘quvchisiga Oybekning “Fonarchi ota” hikoyasini o‘tayotganda o‘qituvchi bolalar bilan birgalikda hikoyani yaxshilab o‘qib chiqishadi. Hikoyani o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi o‘quvchilardan eshitgan hikoyasini so‘zlab berishni so‘raydi va har bir bola hikoyani o‘zining tushunish doirasida so‘zlab beradi. Bu metod orqali bolaning darsga bo‘lgan diqqatini jamlashni hamda hikoyani qay darajada tushunganini bilib olamiz. Yoki aynan shu hikoyani o‘tayotganda hikoyaning voqealariga ya’ni syujetiga oid rasmlar keltiriladi. Bolalarga fonar, tor ko‘cha, kichik narvoncha, do‘ppi, keksa chol, tasvirlangan suratlar taqdim etiladi.



Ushbu rasmlarga qarang va shu rasmlar hikoyaning qaysi o‘rniga tushadi va shu tasvirlar bilan bog‘liq o‘rinlarini aytib bering. Uyga vazifa sifatida esa shu rasmlar asosida o‘zingiz qisqa hikoyalar tuzib kel. Bolalar topshiriqni bajarib kelishgach, ularning ijodiy ishlari baholanadi. Hikoyaning sifati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar bolaga motivatsiya berilishi lozim: Juda yaxshi! Ofarin!

Metodist olima Z.Mirzayevaning fikricha, o‘quvchilarning fanga qiziqish darjasini, fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi turlicha bo‘lishi mumkin. [Mirzayeva, 2020: 86] Ta’lim jarayonining, xususan, adabiyot darslarining samarasi o‘quvchilar motivatsiyasiga, o‘qituvchining o‘quvchilardagi motivatsiyani boshqarish va to‘g‘ri yo‘naltira olishiga ham bog‘liq .

Fikrimizcha, motivatsiya bugungi ta’lim tizimizda eng muhim omil vazifasini o‘tayapti. O‘quvchi qilgan mehnatini boshqalar sezishi, uni ta’kidlashini juda xohlaydi va unda fanga nisbatan qiziqish, o‘ziga nisbatan esa ishonch hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni keltirib o‘tmoqchimizki, maktab ta’limi tizimida, bolalar adabiyoti namunalaring berilishida ham bolaning yosh xususiyatlari, ularning psixologik holati atroficha o‘rganilib keyin berilmog‘i darkor deb o‘ylaymiz. Taniqli metodist M.B.Cherkezova ko‘rsatganiday, “Milliy maktablarda asarlarni o‘rganish metodikasini tanlash uchun ilmiy adabiyotshunoslik mezonlari, adabiy hodisalarga nisbatan tarixiy-genetik, tarixiy-funksional va qiyosiy-tipologik yondashuvlar borligi asos bo‘lib xizmat qiladi”.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev SH. 5-sinf adabiyot darslik. – T.: Sharq, 2020. – B. 272
2. Husanboyeva Q., Hazratqulova M., Jamoliddinova Sh. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish

metodikasi. – T.:Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 370

3. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi.(An'anaviylikdan zamonaviylikka) Uslubiy qo'llanma. – T, 2020. – B. 86

4. Nishonava Z., Alimova G. Bolalar psixalogiyasi va uni o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – B. 168

5. Nishonova Z., Qurbonova Z., Abdiyev S. Psixodiagnostika va Eksperimental psixologiya. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. – B. 216

6. To'ychiyeva M. Adabiyot darslarida didaktik vositalar:tanlov o'lchovlari, qo'llash usullari. Monografiya.– T.: Fan va ta'lim, 2023. – B. 168

7. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 12 бет

BIOGRAFIK TALQINNING IJODKOR OBRAZINI O'RGANISHDAGI O'RNI

Shoxista Mahmudova,

Alfraganus universiteti “Sharq filologiyasi” kafedrasи o'qituvchisi
shohistaxon.mahmudova@gmail.com

Annotatsiya: Maqlada biografik metod haqida, yozuvchi asarlarini o'rganishda biografik metodning o'rni, ijodkorning biografiyasini yaratishda ilmiy-nazariy tushunchalar haqida to'xtalib o'tilgan. Iste'dodli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi”, “Bulut to'sgan oy” hikoyalari adibning shaxsiy hayotiy faktlari va ijodiy qarashlari asosida qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: biografiya, xarakter, obraz, fofia, syujet, ijodkor, metod.

Annotation: The article discusses the biographical method, the role of the biographical method in the study of the writer's works, and the scientific and theoretical concepts in creating the biography of the creator. The stories of the talented writer Shukur Kholmirzayev “The Sun Wanders in the Sky” and “The Moon Blocked by a Cloud” are subjected to a comparative analysis based on the writer's personal life facts and creative views.

Keywords: biography, character, image, tragedy, syujet, creator, method.

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini va uning hayotiy xulosalarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Yozuvchining shaxsiy hayotidagi voqeа va hodisalar, uning badiiy asarlari juftligi asosida o'rganiladi. Chunki yozuvchining asarlari bilan birga uning ichki dunyosi, xarakteri, odatlari, kayfiyati, yashash tarsi, ruhiy holati, yashagan muhiti, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy olami, ijodidagi g'oyaviylik va badiiylik kabi jihatlar yaxlit o'rganiladi.

Biografik metod asoschisi, fransuz adabiyotshunosi va adibi Sharl Sent-Byovning “Adabiy portretlar” (1836-1839) nomli asarida ilmiy biografiyanı yaratish haqida chuqur to'xtalib o'tgan. Shuningdek, fransuz adabiyotshunosi Andre Moruaning “Adabiy portretlar”, B.S.Baraxovning “Adabiy portret” kabi asarlarida ilmiy biografiya yaratishning nazariy va amalii jihatlari ochib berilgan.

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari ifodasi sifatida o'rganilsa, biografiya esa janr sifatida yozuvchi tarjimayi holini yaratadi.

Sh.Sent-Byov ijodkorlar dunyosi bilan qiziqar ekan, o'zining portret yarata olish mahoratiga ishonib: “Mening tanqidiy ishlarim har doim ixtiyorimga qarshi o'larоq, yozuvchi yoki asar haqidagi psixologik tadqiqotga aylanib ketadi” [Sent-Byov Sh, 1970:109] degan edi. U yozuvchi biografiyasini o'rganish murakkab emasligini portretchi yoki tanqidchiga uqtirib, fikrini davom ettiradi: “*Ularning o'zlari sizga o'zi haqidagi barcha gapni aytib berishadi, o'zlari sizning tasavvuringizda namoyon bo'ladi. Bunga shubha qilmang! Hech bir yozuvchi, ayniqsa, shoir sizdan hech narsani yashirmaydi*” [Sent-Byov, 1970:40].

Biografik metodning nazariy shakllanishi va o'rganilishi ko'proq ijodkor tarjimayi holi bilan bog'liq jarayon. Shu sababdan ham mazkur metod talab etgan asoslar – yozuvchi tarjimayi holini, uning ijodini shaxsiy kechinmalari sifatida yaratish maqsadga muvofiq. Badiiy asarda ijodkorning shaxsiy hayoti, ke-

KIRISH. Shuhrat Sirojiddinov. Global ta'lidan milliy maqsadlar sari	4
Global ta'lif va milliy metodika	
Qozoqboy Yo'ldoshev. Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari	5
Shohidaxon Yusupova. Matn bilan ishlashga psixolingvistik, kognitiv va funksional yondashish masalalari	7
Roza Niyozmetova. Adabiy ta'lida internet ma'lumotlaridan foydalanish	10
Valijon Qodirov. Oliy filologik ta'lida adabiyot fanlarini o'qitish borasida mulohazalar	14
Mahkamoy Tursunova. Sharqona o'qitish usullari – adabiyot mashg'ulotlarining yuksak samaradorligiga erishish vositasi sifatida	16
Klaraxon Mavlonova. Ona tili darslarida global fuqarolik ko'nikmasini shakllantirish	18
Zavqiddin Suvonov. Badiiy matnning filologik ekspertizasi metodologiyasi xususida	22
Saodat Kambarova. Badiiy asarlarni o'rganishda lateral metodlar	24
F.Egamberdiyeva, M.Usmonboyeva. Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	26
Xolida Tojiyeva. Mumtoz adabiyot namunalari janr xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati	29
Nursulu Nagmetova. O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda umumiy o'rta ta'lif maktablari va ijtimoiy institutlar hamkorligi	31
Mahfuza To'ychiyeva. Adabiy ta'lidiagi ijodiy fikrlashning xalqaro ahamiyati	33
Maxsuda Sariboyeva, Mahfuza Tuychiyeva. Yoshlar ongiga ma'naviy qadriyatlarni singdirishda innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv	37
Okila Turakulova. O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	41
Mohigul Fozilova. Badiiy asar mazmunini o'qib idrok qilish	44
Intizor Abdirimova. Loyihalash faoliyatining tashkil etish bosqichlari	47
Xilola Suyunova, Dilorom Suyarova. Til ta'lida integratsiyaning globallashuvi	49
Xolbibi Qurbanova. Til ta'lida "ijodiylik" masalalari	52
Barno Abdurahmonova, M. Abduqodirova. "Vatanim" she'ri matni ustida ishslash orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish	53
Nurislom Xursanov. Tilni o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari	57
Aysara Najimova. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari	59
Rustam Yo'ldoshev. O'zbek tilida nomi noaniq, yetim qo'shimchalar o'z oilasini topsin!	61

Nazokat Yusufjonova. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	63
Zoya Sarsenbaeva. Ingliz va o‘zbek adabiyotida modernizm	66
Husniddin Qoraboyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridan uy vazifalar 4K ko‘nikmasini shakllantirish	70
Xamza Elliyev. Maktab o‘quvchilarining bilimini baholashda xorij tajribasini qo‘llash	73
Adabiyotshunoslikning dolzARB muammolari	77
Safo Matchonov. Miraziz A’zam ijodida falsafiy g‘oyalar talqini	78
Sh.N.Axmedova. Zamonaviy turk she’riyatida yomg‘ir obrazining talqinlari	82
Marg‘uba Abdullayeva. G‘azal tahlili xususida	85
Obidaxon Fayzullayeva. She’riy turkumlarda badiiy shartlilik va ishoralarning poetik funksiyasi	89
Zavqiddin Suvonov. Filologik ekspertiza: metodologiya obyekti	93
Komiljon Hamroyev. Hikoyada badiiy metamorfoza shakllari	97
M.Usmanova, Sh.Mamadaminova. Bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashning mazmuni	104
M.A.Yakubova, Muxlisa Begimova. Oilada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida farzandlarni tarbiyalash	106
Nilufar Chuliyeva. Zamon va makonning mifopoetik talqini (Nazar Eshonql hikoyalari misoldida)	110
Kabil Kubayev. Afsonalarning badiiy talqini	115
Abdunabi To‘ychiyev. Nurali Qobul asarlarining mavzu ko‘lami va obrazlar tabiatি	118
Djurayeva Xusnigul. Uch buyuk siymo	122
Oyistaxon Usmonova. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini tahlil qilish orqali yoshlarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish	124
Dilnoza To‘rayeva. Hissiy tafakkurning badiiy talqini	127
Abdulatif Primov. Abdulla Qodiriy nasrida folklor unsurlarining roli	130
Hulkar Aliqulova. Bolalar folklorining janr xususiyatlari	133
Dilafruz Nazarova. Xoja va Rabg‘uziy	136
Rahim Mardanov. Tasavvufiy obrazlar talqini haqida olimlarning fikrlari	138
Sardor Jo‘raqulov. Alisher Navoiy qit’alari xususida	140
Olmos Xurramov. Badiiy asar tarixiyligi: umumnazariy tamoyillar	143
Shuxrat Lolayev. Jadid adabiyotida ma’rifatparvarlikning shakllanish poydevori	147
J.A Tuzikenova. So‘z ma’nolari va so‘z tarkibi so‘z boyligini oshirish vositasi sifatida	150

Xumora Jo'raqulova. Ma'rify roman tematikasi (N.F. Karimov romanlari tahlili misolida)	153
Gulfiza Olimova. Xorazm "Oshiq" turkumi dostonlari hamda "Kitobi Dada Qo'rquq" eposidagi motivlarning qiyosiy o'rganilishi	155
Sayohat Arziqulova. Zamonaviy o'zbek va turk ayollar she'riyatida shakliy izlanishlar	158
Til va adabiyot o'qitish muammolari: yechim va takliflar	163
Shahlo Naraliyeva. Adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasi	164
Gulnoza Jurayeva. O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'rlarning ahamiyati	166
Shahnoza Razmonova. Alisher Navoiy fardlarini ifodali o'qitish tajribasidan (8-sinf "Adabiyot" darsligi misolida)	171
Husniddin Suyunov, Xolida Bozorova. Boburning "Boburnoma" asarini o'rganishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	172
Azamat Uralov. Ayrim metodlarni filologik ta'lilda ishlatalishi	179
Mahfuza Usmanova, Shodiya Malikova. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarning og'zaki nutqini o'stirish	184
Mutallib Hazratqulov, Hulkar Boltayeva, Xurshida Qilichboyeva. Grammatik qoidalarni kontekst asosida o'rgatish usullari	186
Muhayyo Yo'ldosheva. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida asar tahlili masalalari	190
Iroda Ishonxanova. O'rta umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini o'rganishga innovatsion yondashuv	194
Saodat Eshpulatova. Nasriy asarlarni o'rganishda interfaol metodlarning o'rni	197
Feruzaxon Karimova. Muloqotdagi nutqiy "o'yinlar" haqida	201
Saule Tajbenova. Ona tili darslarida orfografik qoidalardan foydalanish orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish	204
Akbar Ruziyev. Xususiy diskursning ayollar va erkaklar nutqidagi xususiyatlari	207
Sanobar Kuldasheva. Til ta'limida raqamli yondashuvlar	210
Surayyo Inomjonova. Adabiy ta'limda o'quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish usul va vositalari	214
Farrux Qulsaxatov. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyaning o'ziga xos xususiyatlari	216
Nurzod Norqulov. Alisher Navoiy hayotini o'rganishda manbalardan unumli foydalanish	220
Munisa Qosimova. Keys texnologiyasining adabiyotga kirib kelishi	222
Abdulla Mahmado'stov. Adabiyot o'qitishda fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish	225
Oysuluv Musurmonkulova. To'g'ri fikrash ezgulikni anglashdir	228

Maxfuza Abdialimova. Qozoqboy Yo’ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari	233
Ra’no Xoliqova. 5–6-sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini o‘quv topshiriqlari asosida rivojlantirish	238
Zaynab Kurbanova. Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o‘qitishda nutqni rivojlantirish usullari	242
Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	245
Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova. O‘qish savodxonligi darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko‘nikmalarini shakllantirish	247
Bashorat Muminova. Ish qog‘ozining assosiy matni ustida ishslash	249
Intizor Jumaniyazova. Fardlar tahlili orqali o‘quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish	252
Mirzabek Xolyorov. Abdulla Oripov – tabiat musavviri	257
Husniddin Qoraboyev. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati	259
Mahliyo Elboyeva. Maktab ta’limida bolalar adabiyoti namunalarini o‘qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari	261
Shoxista Mahmudova. Biografik talqinning ijodkor obrazini o‘rganishdagi o‘rni	266
Nargiza Ergasheva. Adabiyot darslarida loyiha ishi: Kitob treyleri (“Book trailer”)	270
Nilufar Kadirova. O‘quvchilar tanqidiy tafakkurining shakllanishida “aydos-konspekt” usulining o‘rni	272
Maxmuda Yuldasheva. Adabiy ta’limda lirik, epik va dramatik asarlarni o‘qitishda evristik yondashuvdan foydalanish amaliyoti	278
Ozoda Shukurboyeva. O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari	285
Madina Abduqodirova. Kognitivizm va uning adabiy ta’limga tatbiqi	287
Nilufar Turg‘unova. Faoliyat mazmuniga ko‘ra o‘quv loyihalarining turlari	294
Gulshoda Ruziyeva. Zamonaviy tilshunoslikning sotsioprogmatik xususiyatlari	296
Nodirbek Xasanboyev. Oliy adabiy ta’limda masofadan o‘qitish muammo sifatida	298
Madina Axmadjanova. Ona tilini o‘qitish muammolari (Turkiyada ona tili ta’limini o‘qitish misoldida)	301
Malika Axmadjanova. Til o‘qitishda lug‘at boyligini darajalash tamoyillari	304
Laylo Xursanova. Xorijiy tilini o‘qitishda mediata’lim vositalaridan foydalanish holati	307
Shaxnoza To‘rayeva. 5-sinf “Ona tili” darsligida grammatik savodxonlikni shakllantiruvchi o‘quv topshiriqlari tahlili	310
Zebiniso Davronova. Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	312

Gulnora Umarova. Nega “Hayrat ul-abror” dostonini sharhlab o'qitish kerak?	317
Shoxina Baxadirova. Masofaviy ta'lifning tillarni o'qitishda tutgan o'rni	321
Xosiyat Navruzova. Qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishiga oid tadqiqotlar tahlili	324
Elmurod Sharipov. Adabiyot va san'at asarlarining estetik tarbiyatagi o'rni va ahamiyati	326
Gulnora Umarbekova. Integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	329
Talabalar minbari: til va adabiyot ta'limida innovatsion g'oyalar	331
Shalola Raximova. Uzlucksiz ta'limda Anvar Obidjon ijodining o'rganilishi	332
Maftuna Narziyeva. She'riy asarlar tahlilida peyzaj namunalaridan foydalanish	335
Juldiz Jamgirbaeva. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilariga bog'lanishli nutqni o'rgatishning nazariy asoslari	340
Dilafruz Meliboyeva. 5-sinf adabiyot darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan mulohazalar	342
Mushtariy Rasulova. Leksikografiyaga zamonaviy yondashuv: Muammo va yechimlar	345
Nigora Botirova. Dilshod Rajab ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish	349
Dilchehra Toshpolatova. Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida analogiya hodisasi	353
Feruza Itolmasova. O'zbek adabiyotida fojaviylikning o'rganilishi	355
Nilufar G'ofurova. Adabiyotda taxalluslarning paydo bo'lish sabablari	358
Sardor Jo'raqulov. "Uloqda" hikoyasini o'rganishning bir jihatni	361
Shohrux Nuraliyev. Dilshod Rajab she'riyatida bolalar ruhiyatining manzaralari va jumboq janri	363
Mamura Norjigitova. Chexovning "Xameleon" hikoyasida sarlavhaning badiiy vazifa-si	366
Muhayyo Rahimqulova. Maqol janri va uni dostonlarda tutgan o'rni	368
Pokiza Nurmamatova. Rauf Parfi sonetlarida ijtimoiy ruh va novatorlik	371
Gulshoda Sobirova. Kichik epik asarlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish	374
Sabina Xolova. Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	376
Gulinor Xolmurotova. Erkin Malik asarlarida ustoz obrazining badiiy talqini	378
Dilnoza Narzullayeva. Ernest Seton-Tompson asarlarida bo'ri obrazi talqini	381
Mohlaroyim Sayfiddinova. Tarixiy asarlarni qiyosiy usulda o'rganish	385

Madinabonu Odilova. Adabiy ta’limda o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish usullari	387
O‘g‘iloy Ikromova. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini o‘stirishda noan’anaviy to‘garaklarning o‘rni	390
Madinaxon Erkinova. O‘zbek adabiyoti tarixini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish	392
Maftuna Ravshanova. Turkiy ijodkor ayollar zikri	394
Mohigul Rahimqulova. Alisher Navoiy asarlarini umumta’lim maktablarda o‘qitilishida zamonaviy pedagogik vositalarning o‘rni va ahamiyati	397
Durdona Tursunaliyeva. Javlon Jovliyev ijodida ayol obrazi talqini	400
Bekzod G‘oziyev. O‘quvchilar bilimini nazorat qilish usullari	402
Farangiz Zokirova. Adabiyot darslarida Blum taksonomiysi samaradorligini oshirish	403
Malikabonu Elmonova. Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollarning kontrastiv turlari	406
Munisa Axmatxodjaeva. Til – ijtimoiy hodisa	408
Alina Gulmanova. O‘zbek milliy pedagogikasi	409
Zulxumor Tursinmurodova. “Alpomish” dostonining yoshlar axloqiy tarbiyasidagi o‘rni	411
Ozoda Abdug‘ofurova. O‘zbek tili sintaksisi ta’limoti va taraqqiyoti	413
Maftuna Ibrohimova. Rasmiy-idoraviy uslubning qo‘llanish sohalari	415
Feruza Orazbaeva. Diplomatik yozishmalar tasnifi	416
Jasmin Risbayeva. XX-XXI asr o‘zbek tilining rivojlanish jarayoni	418
Dilnura Ulasheva. O‘zbek adabiy tili me’yorlari	419
Guljaynar Baydullayeva. Morfemika tilshunoslikning muhim bo‘limi	421
Setora Hamidullayeva. Til va nutq tushunchasi	423
Sitora Xolmaxmatova. Gapning ajratilgan bo‘laklari haqida nazariy qarashlar	424
Xulkaroy Mirtolipova. Til o‘qitishda so‘z birikmasining ahamiyati	426
Mashxura Xolmamatova. Ona tili darsida lug‘at bilan ishlash	429
Ruxshona Raxmatullayeva. Rasmiy uslubning grammatik aspekti	431
Ozoda G‘opporova. Ergashgan qo‘shma gaplar tarkibini bog‘lovchi vositalar	432
Diyora Qambarova. Umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida sharadalar (so‘z o‘yini) dan foydalishning o‘ziga xos xususiyatlari	434

Gulnoza Nasirdinova. O'quvchilarda o'zbek tilida esse yozish ko'nikmalarini shakllantirish va undagi muhim jihatlar	438
Anvar Eshnazarov. "O'rda" so'zining kelib chiqish tarixi	441
Dilnoza Tursunova. Elis Manro hikoyalarida badiiy detalning katta o'rni	443
Ahliddin Tursunov. Xudoyerberdi To'xtaboyev hikoyalari tahlili	446
Mehrinoza Farmonova. Navoiy dahosi haqida	448
Zarinabonu Keldiyorova. Hindiston ta'lim tizimida o'quv topshiriqlari mazmuni (5-sinf Haydarobod darsligi misolida)	450
Nazokat Nurullayeva, Mahliyo Xudoyerberdiyeva. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida ayol xarakterining shakllanishi	453
Shahruza Fazliddinova, Nilufar Ismatova. Ona tili lug'at tarkibining ma'no jihatidan tasniflanishi	455
Laylo Abdirashidova. "Majolis un-nafois" da ustoz-shogird an'analari xususida	457
Sevinchxon Fayzullayeva. O'tkir Hoshimov ijodida peyzaj va portret	458
Sabrina To'ymurodova. Jadid adabiyotida o'zbek qizi ruhiyati (A.Qodiriy, Cho'pon va Hamzaning asarlari asosida)	461
N.R.Palvanbayeva. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda innovatsion usullar va enerjayzer o'yinlar	464



Bosishga 2024 yil 15 faprelda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 _{1/32}. “EB Garamond” garniturasi.
Offset bosma usulida bosildi.
29.5 bosma toboq. Adadi 100 nusxa.
16/04-sod buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Anorbooks” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Tasdiqnoma raqami №5566
Toshkent shahri, Qozirobod,
Kamolon darvoza, 2-uy.
(+99899) 335-66-00.